

BARQAROR IQTISODIY O'SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN DAROMAD SOLIG'I VA IJTIMOIY SOLIQ HISOBOTINI TO'LDIRISH AMALIYOTI

Zuhriddin Qahharov

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

"Buxgalteriya hisobi va hisoboti" kafedrasi dotsenti, PhD.

e-mail: kahharovzz@gmail.com

Annotatsiya

Tezisda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i va ijtimoiy soliq hisobotini to'ldirish amaliyoti ko'rib chiqiladi. Ushbu hisobotlarni to'ldirish jarayonlari, huquqiy asoslari, soliq to'lovchilar uchun muhim jihatlar hamda amaliy tavsiyalar haqida ma'lumotlar beriladi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining tegishli qonun hujjatlari va soliq kodeksiga oid tahlillar keltiriladi.

Kalit so'zlar

Jismoniy shaxslar, daromad solig'i, ijtimoiy soliq, hisobot, soliq kodeksi, soliq to'lovchilar, huquqiy asoslar, soliq hisobotlari.

Mamlakatimizda soliq ma'murchilagini rivojlantirishning asosiy sharti sifatida sohaga raqamlashtirishni keng joriy qilish orqali tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga o'rinsiz aralashuvlarni kamaytirish hisoblanadi. Soliq to'lovchilar tomonidan soliq va moliyaviy hisobotlarni soliq organlariga taqdim qilish faqat elektron shaklda elektron soliq xizmatlari portalida amalga oshirilishi majburiyligi kiritilganligiga ancha vaqt bo'lgan.

Soliq hisobotlarini o'z vaqtida taqdim etmagan soliq to'lovchilarga qanday chora ko'rildi? Bugungi kunga kelib soliq hisobotlarini o'z vaqtida taqdim etmaganligi uchun ma'muriy jarima tarzidagi jazo qo'llash amaliyoti bekor qilingan. Buning o'rniga vakolatli soliq organi soliq hisobotini o'z vaqtida taqdim qilmagan soliq to'lovchiga bu bo'yicha amaliy yordam berishi mumkinligi yozilgan xabarnoma jo'natadi. Ushbu jarayon "Soliq organi – soliq to'lovchiga madadkor" mezoni asosida amalga oshirilmoqda.

Soliq hisobotini o'z vaqtida taqdim etilmaganligiga 10 kalendar kuni o'tganidan so'ng soliq organi soliq to'lovchining bank hisobvaraqlariga ta'qiq qo'yadi. Amaldagi soliq kodeksining 111-moddasiga asosan soliq to'lovchining (soliq agentining) bankdagi hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turish to'g'risidagi qaror soliq organining rahbari (rahbar o'rinnbosari) tomonidan o'n kundan ko'p bo'limgan muddatga qabul qilinishi mumkin. Soliq to'lovchining (soliq agentining) bankdagi hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarni o'n kundan ko'p muddatga to'xtatib turish to'g'risidagi qaror soliq organining iltimosnomasiga asosan sud tomonidan qabul qilinishi mumkin. Bunda soliq to'lovchining (soliq agentining) bank hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalari sud tomonidan qaror qabul qilingunga qadar to'xtatib turiladi.

BARQAROR IQTISODIY O'SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

Soliq to'lovchi soliq hisobotini taqdim etgan vaqtidan keyin uning bank hisobvarag'iga qo'yilgan ta'qiq bekor qilinadi.

Biz ushbu tezis orqali jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining amaldagi hisobot shaklini to'ldirish va soliq organlariga taqdim qilishni tushuntirib o'tmoqchimiz. Ushbu tezis yozilayotgan paytda my.soliq.uz saytining hisobotlar qismida "Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i va ijtimoiy soliq hisob-kitobi"ning "11101_16" kodli hisobot shakli amalda edi va hisobotni to'ldirishni ushshu shakli misolida tushuntirib o'tamiz.

Shuni ta'kidlab o'tishimiz kerakki, ijtimoiy soliqning hisobot shakli alohida topshirilmaydi, ya'ni ijtimoiy soliqning ma'lumotlari ham jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bilan bir hisobot shaklida mujassamlashgan bo'ladi. Hisobot shakli o'sib boruvchi tartibda to'ldiriladi va taqdim qilinadi.

Хисобот деталлари	
46 - Жисмоний шахслардан олинидиган даромад солиги	Хисобот
2023	Апрел
ЧИЛОНЗОР тумани	
Жисмоний шахслардан олинидиган даромад солиги ва ижтимоий солик Хисоб-китоби	
Жисмоний шахслардан олинидиган даромад солиги ва ижтимоий солик Хисоб-китоби	
Илова. № 1 Ижтимоий солик хисобланмайдиган тўлов турлари	
Илова. № 2 Жисмоний шахсларнинг солик солишдан озод этилган даромадлари ёйилмаси	
Илова. № 3 Мол-мулкни ижарага берувчи жисмоний шахслар учун белгиланган ижара тўловининг энг кам микдори МАЪЛУМОТНО!	
Илова. № 5, №6 ва № 7	

1-rasm. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i va ijtimoiy soliq hisob-kitobi hisobot detallari

Barcha soliq hisobotlarida bo'lgani kabi ushbu hisobotda ham, eng avvalo, hisobot detallari to'ldirib olinishi zarur. Bunda soliq turi, hisobot turi, hisobot yili, hisobot davri (oy) va hisobot taqdim etiladigan davlat soliq xizmati organi tanlanadi (1-rasm).

Barcha soliq turlarining hisobotlari kabi ushbu hisobot ham varaqlar va ilovalardan tashkil topadi. Varaqlar va ilovalarni to'ldirish avvalo oxirgi varaqlardan boshlash tavsiya etiladi. Ilovalarning ayrimlari hisobot matnida ko'rinxanmaydi (№4, №5, №6 va №7 ilovalar). Ushbu ilovalarning ma'lumotlarini to'ldirish "Biriktiriladigan shablon fayli" orqali amalga oshiriladi (2-rasm).

BARQAROR IQTISODIY O'SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

Хар бир жисмоний шахс кесимида хисобланган

Хисобчилар дикжитига!

Хисобланган мехнатга ҳақ тўлаш тарзидаға даромадлар тўғрисидаги маълумотлар Сиз томонингиздан ЖШШИРни нотгари териш ёки бошқа хамолар сабабли бирон бир фуқаро бўйи Шу сабабли, хисобланган даромадлар суммаси тўғрисидаги маълумотлар хар бир фуқаро кесимида тўғри курилшиши шарт! Жисмоний шахснинг шахсий идентификацион рақами (ЖШШИР) фуқаролик паспорти (ID-карта)да кўрсатилган бўйла.

Фуқароларнина ЖШШИРни Солик кўмитасининг "my.soliq.uz" электрон солик хизматлари порталаидаги электрон давлат хизматларининг "СТИР ёки ЖШШИРнингизни аниқлане" бўйим.

Изоҳлар:

7, 8 ва 9-устунларни тўлдириш мажбурий ҳисобланади, бунда якка тартибдаги тадбиркорлар мустасно;

11 ва 13-устунлар иш бошдан ўсиб боруви якун билан тўлдирилаби;

11-устундаги жами сумма ҳисоб-китобнинг 011-сатрига тенз бўлиши керак;

12-устундаги жами сумма ҳисоб-китобнинг 0110-сатрига тенз бўлиши керак.

Т/р	Жисмоний шахснинг Ф.И.Ш.	Лавозими	ЖШ ШИР	Иш ўрни ташкил қилинган сана (Иш ўрни 01.01.2023 йилгача ташкил қилинган бўлса 01.01.2023 ёзилади, жорий йилда ташкил этпиган бўлса сана кўрсатилади)
1	1 Осиёв ташкил олинишни замонга салади	2	3	4 01.01.2022 5

2-rasm. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i va ijtimoiy soliq hisob-kitobiga biriktiriladigan shablona fayli

Shablona faylning varaqlari quyidagilar hisoblanadi:

- har bir jismoniy shaxs kesimida hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar, mazkur daromadlar bo'yicha hisoblangan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i to'g'risida ma'lumot (4-ilova);

- har bir jismoniy shaxs kesimida hisoblangan mulkiy (dividend va foizlardan tashqari), moddiy naf tarzidagi va boshqa daromadlar, mazkur daromadlar bo'yicha hisoblangan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i to'g'risida ma'lumot (5-ilova);

- bajarilgan qurilish ishlari bo'yicha ish haqi hisoblanishi yuzasidan ma'lumotnomasi (6-ilova);

- har bir jismoniy shaxs kesimida kasanachilik faoliyatidan olingan daromadlar, mazkur daromadlar bo'yicha hisoblangan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i to'g'risida ma'lumot (7-ilova).

Yuqoridagi ilovalarning eng muhimmi va ko'pchilik soliq to'lovchilar tomonidan har hisobotda to'ldiriladigan qismi 4-ilova hisoblanadi. Ushbu ilovada jismoniy shaxslarning nomi, lavozimi, shaxsiy identifikatsiya raqami, mehnat munosabatlari haqida ma'lumotlar, yil boshidan beri va hisobot oyida hisoblangan daromad, yil boshidan beri va hisobot oyida hisoblangan daromad solig'i haqidagi ma'lumotlar yoziladi. Zarur holatlarda hisobotda 5-7-ilovalar ham to'ldirilishi zarur.

Ilovalarga kiritilgan qiymatlar bir kalendar yili davomida, ya'ni soliq davri davomida hisobga olinishi zarur. Masalan, bir jismoniy shaxsga yanvar-mart oylarida mehnatga haq to'lash tarzidagi daromad hisoblangan bo'lsa va keyin aprel oyidan boshlab daromad hisoblash to'xtatilgan bo'lsa (masalan, ishdan bo'shaganligi sababli), ushbu xodimga dastlabki oylar (yanvar-mart) da hisoblangan daromadlar qiymati aprel-dekabr oylaridagi hisobot shakllarida ham yozib qo'yilishi kerak.

BARQAROR IQTISODIY O'SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

Biriktiriladigan fayl shabloniga barcha yozuvlar kiritilganidan keyin fayl kompyuter xotirasida saqlanishi va my.soliq.uz saytida to‘ldirilayotgan hisobotga yuklanishi (upload) kerak. Shundan keyin zarur holatda 3-ilova to‘ldirilishi boshlanadi (3-rasm).

Мол-мulkni ijaraaga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara tuldovining eng kam miqdori MA’LUMOTNOMA-HISOB-KITOBI

Kursatichilar	Satr kodи	Jami	Ijaraaga beriladigan miqdori			
			Toshkent sh.	Nukus sh. va viloyat markazlari	boshqa aholi punktlari	
1	2	3	4	5	6	7
Ижара берилетган мол-мulk ўчнов бирлиги	010	x				
Ойлик ijara tuldovini stivakasilarining eng kam miqdori, sўmda*	020	x				
Хисобот ойн учун ijara tuldovining eng kam miqdori	030					
Ижара shartnomasiga assosan xar oйlik ijara tuldovi**	040					
Хисобот ойн учун jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solinching kўsimcha hisoblangan summasi ((030-satr - 040-satr) x 12%)	050					
Avvalgi hisobob davori uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solinching kўsimcha hisoblangan summasi (avvalgi Ma’lumotnoma-hisob-kitobining 070-satriga)	060		x	x	x	x
Хисобот davori uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soliqi kўsimcha hisoblangan summasi (050-satr + 060-satr)	070	x	x	x	x	x
Иш; Xabub ilovani jismoniy shaxslardan mol-mulkni ijaraaga oltan kriyik shaxslar tomonidan tuldirladi.						
* Kenguchiliqa belgilangan ijara tuldovining eng kam stavaqasijasidagi.						
**) Xabub summa hisob-kitobning 012-satrida xalq ettpirinashish shart.						

3-rasm. Mol-mulkni ijaraaga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam miqdori ma`lumotnoma-hisob-kitobi

3-ilova faqat mol-mulk (turar va noturar joylar, yengil va boshqa avtomobillar) ni jismoniy shaxsdan ijaraaga olgan va ularga mulkiy daromad to‘laydigan soliq agentlari tomonidan to‘ldiriladi. 3-ilovani to‘ldirishdan maqsad ijara to‘lovining eng kam miqdorlarini aniqlash hisoblanadi. Ma’lumotlarni to‘ldirishda ijaraaga olingan joylarning ijara shartnomasiga ko‘ra kvadrat metrdagi maydoni, transport vositalarining soni hamda ular bo‘yicha eng kam oylik ijara miqdorlari haqidagi har yili tasdiqlanadigan normalardan foydalanish lozim (1-jadval).

1-jadval:

Turar joy va noturar joylarni ijaraaga berishning eng kam stavkalari (2024-yil uchun)

Ijaraaga berilgan mol-mulk turi	O‘lchov birligi	Oylik ijara to‘lovlarining eng kam miqdori, so‘mda		
		Toshkent shahri	Nukus shahri va viloyat markazlari	Boshqa aholi punktlari
Turar-joy	1 kv.metr uchun	25 000	12 000	5 000
Noturar-joy		40 000	23 500	10 000

2024 yilda yengil avtomobil ijarasining eng kam miqdori 780 ming so‘mga va mikroavtobuslar, avtobuslar hamda yuk avtomobillar ijarasini miqdori 1 550 000 so‘mga teng etib belgilangan. Mol-mulkni ijaraaga berishdan olingan daromadlar bo‘yicha hisoblangan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i summasi hisob-kitobning 7-ustun 070-satriga soliq agenti tomonidan yozilishi kerak.

BARQAROR IQTISODIY O'SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

Jismoniy shaxslarning daromad soligi hisobotining muhim qismlaridan yana biri 2-ilova hisoblanib, unda jismoniy shaxslarning soliq solishdan ozod etilgan daromadlari keltiriladi (4-rasm).

Хисоб-читобга 2-илова

Жисмоний шахсларнинг солиқ солишдан озод этилган даромадлари ЁЙИЛМАСИ

Кўрсаткич номи	Сатр коди	Имтиёзлар кўлланилган жисмоний шахслар сони	Даромад суммаси
Имтиёзлар суммаси - жами (020-сатр + 050-сатр + 060-сатр)	010	X	
шу жумладан:		X	X
а) Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодексига мувофиқ - жами (030-сатр + 040-сатр):	020	X	
– Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодексининг 378-моддаси бўйича (банди ва имтиёз мазмуни кўрсатилади) (0301-03...-сатрлар йигинди)	030	X	
шу жумладан:		X	X
<input checked="" type="checkbox"/> <input checked="" type="checkbox"/>	0301		
<input checked="" type="checkbox"/> <input checked="" type="checkbox"/>	0302		
<input checked="" type="checkbox"/> <input checked="" type="checkbox"/>	0303		
<input checked="" type="checkbox"/> <input checked="" type="checkbox"/>	0304		
<input checked="" type="checkbox"/> <input checked="" type="checkbox"/>	0305		
	0306		

4-rasm. Jismoniy shaxslarning soliq solishdan ozod etilgan daromadlari

2-ilovada Soliq kodeksining 378-380-moddalari bo‘yicha va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq qo‘llaniladigan daromad solig‘i bo‘yicha imtiyozlar kiritiladi. Ushbu ilova ham yil boshidan o‘sib boruvchi ketma-ketlikda shakllantiriladi. Ilovaning 010-satri (Jami imtiyozlar summasi) Hisob-kitobning 7-устун 030-satriga avtomatik yoziladi.

Хисоб-читобга 1-илова

Ижтимоий солиқ ҳисобланмайдиган тўлов турлари

Тўлов турлари	Сатр коди	Имтиёз суммаси	Пасайтирилган ставка бўйича солиқ суммаси
Ижтимоий солиқ ҳисобланмайдиган тўлов турлари, жами (020-сатр + 030-сатр)	010		
Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодексига мувофиқ ижтимоий солиқ ҳисобланмайдиган тўлов турлари - жами (0201 - 02...-сатрлар йигинди)	020		X
шу жумладан:			X
<input checked="" type="checkbox"/> <input checked="" type="checkbox"/>	0201		X
<input checked="" type="checkbox"/> <input checked="" type="checkbox"/>	0202		X
<input checked="" type="checkbox"/> <input checked="" type="checkbox"/>	0203		X
<input checked="" type="checkbox"/> <input checked="" type="checkbox"/>	0204		X
Норматив-хукукий ҳужжатларга мувофиқ ягона ижтимоий тўлов ҳисобланмайдиган тўлов турлари (0301 - 03...-сатрлар йигинди)	030		X
шу жумладан:		X	X
<input checked="" type="checkbox"/> <input checked="" type="checkbox"/>	0301		X
<input checked="" type="checkbox"/> <input checked="" type="checkbox"/>	0302		X

5-rasm. Ijtimoiy soliq hisoblanmaydigan to‘lov turlari

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i va ijtimoiy soliq hisob-kitobiga 1-ilova Ijtimoiy soliq hisoblanmaydigan to‘lov turlari deb nomlanib, unda Soliq kodeksining tegishli moddalari bo‘yicha va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq qo‘llaniladigan ijtimoiy soliq bo‘yicha imtiyozlar kiritiladi.

BARQAROR IQTISODIY O'SISH ORQALI AHOI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i va ijtimoiy soliq hisob-kitobining 1-varag‘ida barcha ma’lumotlar umumlashtiriladi. So‘zsiz ushbu varaq hisobotning eng asosiy qismi hisoblanadi (6-rasm).

Кўрсатчиҳар	Сатр коди	Хисобланган даромад суммаси	Ижтимоий солик			Жисмоний шахсрардан олинидаган даромад солиги	ШЖБПГҳа хисобланган маъкорий (иҳтиёрий) бадаллар суммаси
			Жами	Умумбелигланинг ставка бўйича	Бошқа ставкалар бўйича		
1	2	3	4	5	6	7	8
Хисобланган даромадларнинг умумий суммаси (011-сатр+0111-сатр+012-сатр+013-сатр)	010	17 269 863,88	x	x	x	x	
шундан:							
Мехнатга жак тўлаш билан болиги бўлгандар даромадлар (Ўзбекистон Республикаси Солик кодексининг 371-моддаси) (Хисоб-китобга 4-илованинг 11-устуни)	011	17 269 863,88	17 269 863,88	17 269 863,88	x	x	x
шундан, ҳисобот даврида хисобланган меҳнатга жак тўлаш тарзида даромадлар (Хисоб-китобга 4-илованинг 12-устуни)	0110	4 317 465,97	4 317 465,97	4 317 465,97	x	x	x
Ўзбекистон Республикаси ҳудудида ишлаш учун чёт эплик ходимларни бериш бўйича хизматлар кўрсатиш шартномасига мубориф юридик шахс - Ўзбекистон Республикаси нерозидентига тўланаидиган чёт эплик ходимларнинг даромадлари"	0111	0,00	0,00		x	x	x
Мехнатга жак тўлаш билан болиги бўлмагандар даромадлар (Ўзбекистон Республикаси Солик кодексининг 375 (дивиденд ва фоизлардан ташари), 376 ва 377-моддалари) (Хисоб-китобга 5-илованинг 5-устуни)	012		x	x	x	x	x
шундан меҳнатга онд муносабатларда бўлмагандар хизматини шахснинг ёма аризасига асоссан жисмоний шахсрардан олинидаган даромад солиги ўшиб колинимаган додий наф тарзида даромадлар	0121		x	x	x	x	x
Жисмоний шахсрарнинг касаначилик фаoliyatiдан олинган даромадлари (Хисоб-китобга 7-илованинг 5-устуни)	013		x	x	x	x	x
Ижтимоий солик хисобланмайдиган тўлов турлари (Хисоб-китобга 1-илованинг 010-сатри)	020	x	0,00	x	x	x	x
Жисмоний шахсрарнинг солик солишидан озод этилган даромадлари (Хисоб-китобга 2-илованинг 010-сатри)	030	x	x	x	x	0,00	x
Солик базаси	040	x	17 269 863,88	17 269 863,88	0,00	17 269 863,88	x
Жисмоний шахсрардан олинидаган даромад солиги, ижтимоий солик ва ШЖБПГҳа бадаллар ставкаси, %	050	x	x	12,00	x	12,00	0,10
Руслояндан жисмоний шахсрардан олинидаган даромад солиги, ижтимоий солик ва ШЖБПГҳа бадаллар ставкаси, %	060	x	2 072 383,67	2 072 383,67	0,00	2 072 383,67	17 269,86
Филиаллар ва (бўй) алоҳидагу бўлинмалар хамда юридик шахснинг бощ официи томонидан камайтиргандаган ижтимоий солик ва жисмоний шахсрарнинг бирорицчиликларни даромадларни олинидаган даромад солиги суммаси**	061	x	0,00				x
Ижтимоий жиҳадга берилған соликларни даромадларни олинидаган даромад солиги суммаси**	070	x	x	x	x		x
РУМОЗИДА даври таъу кулията хисобланган ажилийини шахсрардан олинидаган даромад солиги суммаси**	071	x	x	x	x	0,00	x
ШЖБПГҳа иҳтиёрий тўланган бадал суммаси	080	x	x	x	x	x	
Шамъи хисобот даваридан тўланиси позим бўлган жисмоний шахсрардан олинидаган даромад солиги, ижтимоий солик ва ШЖБПГҳа бадаллар суммаси (06-сатр+07-сатр+080-сатр)	090	x	2 072 383,67	2 072 383,67	0,00	2 055 113,81	17 269,86

6-rasm. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i va ijtimoiy soliq hisob-kitobi

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i va ijtimoiy soliq hisob-kitobida hisoblangan daromadlarning umumiyligi summasi, mehnatga haq to‘lash bilan bog‘liq bo‘lgan daromadlar, soliq bazasi, hisoblangan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i, ijtimoiy soliq va ShJBPHga badallar summasi, jami hisobot davrida to‘lanishi lozim bo‘lgan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i, ijtimoiy soliq va ShJBPHga badallar summasi kabi ma’lumotlar umumlashadi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i va ijtimoiy soliq hisob-kitobi daromad solig‘i va ijtimoiy soliq uchun yagona umumlashgan hisobot shakli hisoblanadi. Ushbu hisobot shakli daromad solig‘i va ijtimoiy soliqqa oid soliq agentlarining asosiy ma’lumotlarini ochib berish imkoniyatini yaratadi. Hisobot shakli qonunchilikdagi o‘zgarishlar, hisobot ma’lumotlarini yanada boyitish va boshqa sabab hamda maqsadlarga ko‘ra vaqtiga vaqtiga bilan takomillashtirib turiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Qlichev Baxtiyor Pardayevich. (2024). Xo ‘jalik yurituvchi subyektlarda CVP-tahlilni tashkil etishning muammoli jihatlari. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 4 (2024), 754–759
 2. Чориев И.Х. (2023). Молиявий ҳисоботлардаги хатоликларни аниклашда тахлилий амаллардан фойдаланишнинг услугий жиҳатлари. *Scientific Journal of “International Finance & Accounting*, Issue 1, February 2023.

BARQAROR IQTISODIY O'SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

3. Қличев, Б. (2022). КРІ ТИЗИМИ АСОСИДА МОДДИЙ РАФБАТЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ ТАХЛИЛИ. *Архив научных исследований*, 2(1). извлечено от <https://journal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/1343>
4. Klichev Bakhtiyor Pardayevich. (2024). Problematic Aspects of Organizing Cvp-Analysis in the Enterprises of Uzbekistan // Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 5(5), 241–248. Retrieved from <https://wos.academiascience.org/index.php/wos/article/view/4906>
5. Чориев И.Х. (2023). Молиявий инвестициялар ҳисобини такомиллаштириш. *Scientific Journal of "International Finance & Accounting*, Issue 2, April 2023.
6. U.K.Yakubov, G.S.Maxmudova. (2022). Biznes tahlil: Operatsion tahlil-1,2. (Darslik). –Т.: “Nihol print”, 205 б.
7. Qlichev Baxtiyor Pardayevich. (2024). Korxonalarda operatsion faoliyat samaradorligini tahlil qilish masalalari. *World Scientific Research Journal*, 26(3), 86–94. Retrieved from <http://wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/3251>
8. Косимович, Я. У. (2024). Ташқи савдо фаолиятида мақбул ечимни топиш масалаларини таҳлили. *World scientific research journal*, 26(2), 199-205.
9. Tulaev, M. (2024). Moliyaviy hisobot konsepsiyalari. *Nordic_Press*, 2(0002).
10. Абдуллаев, А. Б. (2019). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УЧЕТА И АНАЛИЗА НАЛОГОВ. In *БУХГАЛТЕРСКИЙ УЧЕТ: ДОСТИЖЕНИЯ И НАУЧНЫЕ ПЕРСПЕКТИВЫ XXI ВЕКА* (pp. 10-17).
11. Kasimovich, Y. U. (2021). Developing A Model On The Basis Of A System Of Indicators Determining The Efficiency Of Foreign Trade Activities. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 12(7).
12. ҚЛИЧЕВ, . Б. П. (2022). ИШБИЛАРМОНЛИК ФАОЛЛИГИ ТАХЛИЛИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ. *Архив научных исследований*, 2(1). извлечено от <https://journal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/373>
13. Rozmatova Umida Yuldashevna. (2024). NOMODDIY AKTIVLAR AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH. *World Scientific Research Journal*, 26(3), 177–184. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/3261>
14. Tulaev, M. (2024). Т BUXGALTERIYA HISOBINING SCHYOTLARI VA ULARNING MOHIYATI. *Nordic_Press*, 2(0002).